

**TOSHKENT SHAHAR XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIIY  
MARKAZI**

**G.Q.KARIMOVA**

**PEDAGOGIKANING ASOSIY MASALALARI**

**Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini  
oishirish hududiy markazlaridagi pedagogik qayta tayyorlov kursining  
barcha yo'nalishdagi tinglovchilari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma  
sifatida tavsiya etilgan**

**Toshkent – 2020**

UO‘K 37.013(075)

KBK 74.0ya73

**Karimova G.Q**

**Pedagogikaning asosiy masalalari.** O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.:  
“Lesson Press” nashriyoti. 2020, 140 b.

**Taqrizchilar:**        **Z.T.Saliyeva** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Umumiy pedagogika” kafedrasida p.f.d., DSc, dotsenti  
                              **G.V.Yeldasheva** – Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasida mudiri, p.f.n., dotsenti

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanmada pedagogika fanining predmeti, vazifalari, asosiy kategoriyalari, boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi, pedagogika faning metodliyasini, metodlari, shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, yosh va individual xususiyatlari, didaktikaning asosiy kategoriyalari, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda pedagogik mahoratga doir masalalarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent shahar Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining Ilmiy metodik Kengashining 2020 yil 21 apreldagi 4-sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan.

ISBN 978-9943-6264-2-1

© Karimova G.Q. 2020

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538 farmonida rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan xalq ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli qaroriga muvofiq, mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda yangilangan o‘quv rejalari va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va nashr etishni tashkil qilishni taqazo etadi.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019 yil 28 martdagi “Xalq ta’limi tizimida oliy ma’lumotli kadrlarni qayta tayyorlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 115-sonli buyrug‘i asosida xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida tashkil etiladigan oliy ma’lumotli

nopedagog kadrlarni qayta tayyorlov kursi tinglovchilarida ta'lim tizimi, pedagogika fanining metodoliyasi va metodlari, ta'lim nazariyasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, o'qitish jarayoni, mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari hamda pedagogik mahoratga doir masalalarni o'z ichiga qamrab olgan.

## PEDAGOGLIK KASBI VA UNING VAZIFALARI

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan ta’lim muassasalarida faoliyat olib barayotgan pedagoglarga berilayotgan e’tibor, pedagoglarni o‘z ustida domiy ishlashi, ta’lim soxasiga innovatsion g‘oyalarini tadbiq etishi, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Bu albatta har bir pedagogni jamiyatimizdagi mavqeini yuqori darajada ko‘tarishga xizmat qiladi. Pedagoglik kasbi eng mashaqqatli hamda ma’suliyatli kasb hisoblanadi. Shuning uchun ham pedagogika fani dunyoviy fanlar tizimida alohida o‘rin egallaydi.

**Pedagogika** (yunoncha “paidagogike”– “paidagogos” “bola” va “yetaklayman”) ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, shaxsni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat mazmuni, ta’lim, ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, shakllari, metodlari, vositalari, yagona ijtimoiy maqsad asosida yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi. A.Avloniy tushunchani “bola tarbiyasining fani” (“pedagogiya”) deb ataydi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati, uni o‘qitish va tarbiyalashga e’tiborni qaratadi. Shu bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi Pedagogika fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

**Pedagogika predmeti va uning chegarasi.** Pedagogik tadqiqot bu yo‘nalishi ba’zi e’tirozlarni paydo qilishi mumkin. Chunki aksariyat ko‘pchilik pedagogika predmeti va uning chegarasi allaqachon aniqlangan, deb o‘ylashadi: u – **tarbiya haqidagi fandir**. Bu ta’rif pedagogikaga ko‘p asrlar oldin berilgan, ma’lum ma’noda an’anaviy ta’rif deyish mumkin. Afsuski, bu izoh bugungi kun talabiga to‘liq javob bera olmaydi, qator xollarda chalkashlikka olib keladi, fanning ta’sir doirasini toraytiradi. Gap shundaki, pedagogik adabiyotlarda **“tarbiya”** atamasining o‘zi turlicha izohlanadi:

- 1) keng ijtimoiy – insonga o‘rab turgan ijtimoiy muhit ta’siri;
- 2) keng pedagogik – o‘quv tarbiya jarayonini butunlay qamrab oladigan maqsadli faoliyat;
- 3) tor pedagogik – tarbiya deganda maxsus tarbiyaviy ishlar tushuniladi;
- 4) birmuncha torroq – tarbiyaviy kuch yo‘naltirilgan maydoncha, maslan, vatanparvarlikni tarbiyalash (axloqiy tarbiya), badiiy tasavvurlarini shakllantirish (nafosat tarbiyasi) tushuniladi – (Y.K. Babanskiy).

Pedagogika ta'lim haqidagi yagona fan sifatida ham e'tirof etiladi, bu fan vakillari u yoki bu ta'limiy faoliyat bilan shug'ullanadilar (V.V.Krayevskiy). Shunday ekan, pedagogikani ta'lim va tarbiya haqidagi fan sifatida talqin etish to'g'ri buladi. Bu o'z navbatida shaxsni maqsadga mos holda shakllantirishning ikki qanotida anglatadi.

Shu sabadan birmuncha aniq ta'rif quyidagicha bo'lishi mumkin: **pedagogika** – bu shaxsni maqsadli shakllantirish haqidagi fandır.

Ma'lumki, shaxsni shakllantirishda irsiyat, muxit, pedagoglarning maqsadli faoliyati, insonning xususiy faoliyati va o'z-o'zini tarbiyalash kabi omillar katta imkoniyatlarga ega. Taklif qilinyotgan ta'rif fanning mavqeini pasaytirmaydi, aksincha, uning qator afzalliklarini sanab o'tishi mumkin: birinchidan, pedagogik faoliyat o'rni shaxsni rivojlantirish va tiklash omillari (irsiyat, muhit va b.) orasida belgilab boradi; ikkinchidan, pedagogik jarayon sifatida ta'lim va tarbiya ahamiyatini muvozanatlashtiradi; uchinchidan, **“tarbiya”** atamasi qaysi ma'noda (tor yoki keng) ishlatilishini ko'rsatish zaruratidan soqit qiladi.

Shaxsni shakllantirish muammosi bilan butun sotsiologiya, falsafa, psixologiya, etika va boshqa qator fanlar shug'ullanishadi. Agar sotsiologiya tarbiyani ijtimoiy rivojlanishning omili sifatida qarasa, psixologiya tarbiyaga shaxsni ruhiy rivojlanishi vositasi tarzida murojaat qiladi. Etika tarbiya masalalarini axloqiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan talqin etiladi. Bu fanlardan farqli o'laroq, pedagogika shaxsni shakllantirishning ikkitabiatini tadqiq qiladi, ularning tuzilmasini aniqlashtiradi, qonuniyatlarini ishlab chiqadi, ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlar texnologiyasini loyihalaydi.

Pedagogika fani predmeti aniqlash, uning boshqa fanlar bilan aloqasi va o'zaro ta'sir doirasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi lozim. Bu muammo hozircha umumiy tarzda yoritilgan bo'lib, aslida kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida ham mazmun jihatdan, ham mantiqiy bog'lanishlar jihatdan uning tavsifnomasi ishlab chiqilishi lozim.

Har bir fanning rivojlanish doirasini tadqiqotlarni tabaqallashtirish va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligining xilma-xilligiga bog'liq holda muhokama qilinishi lozim.

Mustaqillik yillarida pedagogika fanlari tizimi ham birmuncha kengayib bormoqda. Bu demakki, pedagogika fanining o'z obykti, predmeti, ilmiy tushunchalar tarkibi, ularning mantiqi, nazariya va amaliyot mutanosibliigi kabi qator savollarni yangicha talqinda ifodalash zarurati mavjud. Boshqacha

aytganda, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar pedagogikani o'rganadigan fan paradigmasini almshatirish g'oyasini vujudga keltirayapti.

Pedagogik paradigma ilmiy faoliyat modeli sifatida bir tomondan ta'limda fanlararo tadqiqotlarning nufuzi oshayotganligini, pedagogika fanining integrativ funksiyasi kuchayayotganligini ko'rsatsa, boshqa tomondan ta'lim – tarbiya qonuniyatlarini o'z predmeti sifatida qabul qilishi yagona fan sifatida pedagogikaning nazariy mavqeini oshirish va maqomini aniqlashtirish vazifasini ilgari surdi.

Ta'lim **umumiy va maxsus ta'lim** kabi turlarga ajratiladi. Umumiy

Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlaridan yana biri – bu tarbiya nazariyasi sanaladi. Tarbiya nazariyasi bevosita tarbiya jarayonini o'rganadi.


**Tarbiya nazariyasi** pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi

Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

**Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari.** Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalalanish yo'lida olib borgan harakatlari tarbiya g'oyalarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Ijtimoiy tarbiya g'oyalari asrlar davomida shakllanib kelgan bo'lib, kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida yangi mazmun bilan boyib borgan.

**Pedagogika fanining vazifalari.** Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish orqali jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Fanning maqsadi va vazifalarini belgilashda ijtimoiy munosabatlar, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida pedagogika fani yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ta'lim va tarbiya nazariyasini milliy istiqlol g'oyasi asosida ijodiy rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda quyidagi **vazifalar** bajariladi:



**Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.** Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha **kategoriya** deb ataladi.

Pedagogika fanining **asosiy kategoriyalari** (kategoriyalar matnda qoraytirilib ko'rsatilgan) quyidagilar hisoblanadi:

**Shaxs** psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

**Tarbiya** muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.



**Ta'lim** o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

**Bilim** shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.


**Ko'nikma** shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati

**Malaka** muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Ma'lumot** ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Rivojlanish** shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

**Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.** Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqati nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:



Ko'rsatilgan fanlar pedagogik bilimlar rivojida qanday o'rin tutadi?

**1. Falsafa** – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

**2. Iqtisodiyot nazariyasi** – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv binolarini qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

**3. Sotsiologiya** – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

**4. Etika (axloqshunoslik)** – shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

**5. Estetika** – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

**6. Fiziologiya** – o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.

**7. Gigiyena** – o‘quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi.

**8. Psixologiya** – shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

**9. Tarix** – pedagogika fani taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g‘oyalarni kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.

**10. Madaniyatshunoslik** – o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

**11. Tibbiy fanlar** – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

**12. Ma’naviyat asoslari** – jamiyat, inson va ma’naviyat o‘rtasidagi munosabatlarni, ma’naviyatning jamiyat taraqqiyoti, inson onginu rivojlanishidagi roli, fuqarolarni ma’naviy tarbiyalash omillarini o‘rganadi.

**Pedagogika fanlari tizimi.** Shaxs kamolotini ta’minlash, uning intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/5384> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/5384> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/5384>